

108. Sonni 7 ga bo'lish

Yondosh mavzu:
g'amxo'rlik va yordam.

Bo'linuvchi, bo'lувчи,
bo'linma.



$$\begin{array}{rcl} \text{dog bone} + \text{dog bone} + \text{dog bone} & = 54 & \text{dog bone} = ? \\ \text{dog bone} + \text{doghouse} + \text{doghouse} & = 80 & \text{doghouse} = ? \\ \text{ball} + \text{ball} + \text{doghouse} & = 75 & \text{ball} = ? \\ \text{doghouse} + \text{ball} - \text{dog} & = 42 & \text{dog} = ? \end{array}$$

1. Hisoblang.

- Hayvonot burchagida 2 ta quyon va 3 marta ko'p to'tiqush yashaydi. Hayvonot burchagida nechta to'tiqush yashaydi?
- Sardorning uyida 14 ta quyon yashaydi. Ular hayvonot burchagida yashaydigan quyonlardan nechta ko'p?



- 28, 45, 35, 62, 70, 15, 42, 48, 21 sonlari orasidan 7 ga bo'linadiganlarini tanlab oling. Ularni namunadagi kabi ko'rnishda yozing.

Namuna: $28 = 7 \cdot 4$.



Bir kattalik boshqa kattalikdan necha marta katta yoki kichik ekanini bilish uchun katta kattalikni kichik kattalikka bo'lish kerak.

12 soni 3 dan 4 marta katta,
3 soni 12 dan 4 marta kichik.

3. Rasm bo'yicha masala tuzing. Nimani aniqladingiz?



Necha marta ko'p?
Necha marta kam?



4. a) 56 soni 7 dan necha marta katta?
b) 6 soni 42 dan necha marta kichik?



5. Sxema bo'yicha masala tuzing.

Mushuk
uchun oziqa
Kuchuk
uchun oziqa

4 qadoq



Necha marta
ko'p
Necha marta
kam



6. Chizing va yeching.

- a) Hovlidagi 6 ta o'rindiqdan 2 tasi singan. Butun o'rindiqlar siniq o'rindiqlardan necha marta ko'p?
b) Bu hovlida yashovchi bolalar bitta o'rindiqni ta'mirlashdi. Siniq o'rindiqlar butun o'rindiqlardan necha marta kam bo'lib qoldi?



7. Jadvalni daftaringizga chizing va uni to'ldiring.

a	7	42	49	63	28	56	70	14	21
a : 7									



8. Hisoblang.

$$(42 : 7) + 18$$

$$(63 : 9) - 5$$

$$30 + (14 : 2)$$

$$78 - (7 \cdot 7)$$

$$(30 + 26) : 8$$

$$(89 - 54) : 5$$



9. Kunlar soviy boshlaganda bolalar qushlar uchun donxo'raklar yasadilar. Bolalar məktəb hovlisiga 7 ta, məktəb tashqarisiga 14 ta donxo'rak o'rnatdilar. Məktəbdan tashqariga o'rnatilgan donxo'raklar məktəbga o'rnatilganlardan necha marta ko'p? Bolalar jami nechta donxo'rak yasaganlar?